

**SIRDARYO VILOYATIDAGI
KORXONAVA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT**
2020- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

15 825
123,4 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

14 804
124,2 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)

2 244
113,4 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

9 750



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

352



Oilaviy korxonona

121



Unitar korxonona

3 233



Xususiy korxonona

25



Aksiyadorlik jamiyati

259




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



Xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'ris hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-sentabr holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat –aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi;


–aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-avgust oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-avgust oylarida 2 244 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar– 1 875 ta, xususiy korxonalar– 130 ta, oilaviy korxonalar– 149 ta, muassasalar– 13 ta va boshqalar– 77 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 352 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 191 taga yoki 218,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 295 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 146 taga yoki 198,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 149 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 81 taga yoki 219,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 9 750 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 735 taga yoki 39,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 203 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 625 taga yoki 39,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 875 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 289 taga yoki 18,2 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 182 tani tashkil etib, ulardan 176 tasi yoki 96,7 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 36 taga yoki 124,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida Viloyatimizda 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	62	78	101	144	176
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	4	8	7	15
Sanoat	44	59	68	100	109
Qurilish	1	2	5	7	11
Savdo	7	8	11	20	25
Tashish va saqlash	2	2	4	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	-	2
Axborot va aloqa	-	-	-	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	4	4	8


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 324	4 250	4 915	6 578	9 203
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	492	686	803	1 000	1 523
Sanoat	516	679	761	1 107	1 412
Qurilish	322	428	571	893	1 082
Savdo	1 116	1 341	1 500	1 994	3 222
Tashish va saqlash	333	440	457	461	501
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	126	188	235	418	552
Axborot va aloqa	65	64	62	67	94
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	24	33	47	79
Boshqa turlar	319	400	493	591	738

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	60	84	149	295
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10	8	18	56
Sanoat	26	38	73	131
Qurilish	-	-	-	1
Savdo	13	15	23	44
Tashish va saqlash	-	-	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	17	24	47
Axborot va aloqa	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlar	5	5	8	13

O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	28	19	9
Qozog'iston Respublikasi	18	13	5
Ozarbayjon Respublikasi	3	2	1
Qirg'iz Respublikasi	2	1	1
Tojikiston Respublikasi	8	5	3
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	2	2	-


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Sirdaryo viloyati	176	117	59
Guliston sh.	42	28	14
Shirin sh.	6	6	-
Yangiyer sh.	20	8	12
Oqoltin	4	1	3
Boyovut	7	4	3
Sayxunobod	11	7	4
Guliston	4	4	-
Sardoba	8	5	3
Mirzaobod	11	6	5
Sirdaryo	54	44	10
Xovos	9	4	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 54 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,7 %), Guliston shhrida 42 ta (23,9 %), Yangiyer shahrida 20 ta (11,4%), Sayxunobod tumanida 11 ta (6,3 %) hamda Mirzaobod tumanida 11 tani (6,3 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,6 %), Sirdaryo (14,5 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (8,1 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Oqoltin (5,4 %), Xovos (5,6 %), Sardoba (4,7 %), Shirin shahri (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (20,8 %), Sirdaryo (11,4 %), Sayxunobod (8,6 %), Boyovut (9,4 %), Guliston (6,6 %), Mirzaobod (10,6 %), Yangiyer shahri (5,5 %), Oqoltin (9,9 %), Xovos (7,1 %), Sardoba (7,1 %), Shirin shahri (3,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,0 %), Sirdaryo tumani (17,0 %), Sayxunobod (8,5 %), Boyovut (7,3 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (8,9 %), Yangiyer shahri (8,4 %), Oqoltin (5,1 %), Xovos tumani (5,7 %), Sardoba (4,9 %), Shirin shahri (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (8,1 %), Sirdaryo (12,8 %), Boyovut (4,7 %), Guliston (10,7 %), Mirzaobod (4,0 %), Yangiyer shahri (0,7 %), Oqoltin (49,6 %), Sardoba (0,7 %), Xovos (7,4 %), Shirin shahri (1,3 %) ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan, % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the website interface for the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The header includes the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the UZSTAT logo. A navigation bar lists various sections like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', and 'INTERAKTIV XIZMATLAR'. A dropdown menu is open over the 'INTERAKTIV XIZMATLAR' section, listing options such as 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The main content area features a form with a 'STIR kodini kiriting' field and a 'Qidiruv' button. The left sidebar is titled 'RASMIY STATISTIKA' and lists categories like 'E'lon qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', and 'Milliy hisoblar'. The right sidebar is titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' and lists links like 'Aholini ro'yxatga olish 2022' and 'Harakatlar strategiyasi'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(67)236-86-37**